



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

**“Zahiriddin Muhammad Bobur merosining sharq davlatchiligi va madaniyati
rivojida tutgan o‘rni” mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy
anjuman materiallari. – Toshkent, 2026-yil 12-fevral.**

Mas’ul muharrir:

Sh. Sirojiddinov

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Tahrir hay’ati:

N.Normurodova – ilmiy va innovatsiya ishlari bo‘yicha prorektor
H.Dadaboyev – filologiya fanlari doktori, professor
Z.Xolmanova – filologiya fanlari doktori, professor
B.Abdushukurov – filologiya fanlari doktori, professor
M.Xakimova – filologiya fanlari doktori, professor
M.Qurbonova – filologiya fanlari doktori, professor
M.Umurzoqova – filologiya fanlari doktori, professor v.b.
M.Abjalova – filologiya fanlari doktori, professor v.b.
S.Bozorova – katta o‘qituvchi
D.Muhammadiyeva – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.Shamsiyeva – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
I.O‘razova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
G.Komilova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.Xolmuradova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.To‘xtasinova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
D.Mahkamova – katta o‘qituvchi
Z.Davronova – tayanch doktorant
Z.O‘rinova – tayanch doktorant
M.Abduazizova – tayanch doktorant

Ushbu to‘plamda Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 543 yilligi munosabati bilan o‘tkazilayotgan “Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rni” mavzusidagi uluslararo ilmiy nazariy konferansi materiallari jamlangan. To‘plamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, faoliyati, adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyot rivojida tutgan o‘rni, adabiy-lingvistik, tarixiy-sotsiologik tadqiqi, shuningdek, Bobur va boburiylar siymosining zamonaviy adabiyotdagi badiiy talqini, adabiy ta’sir va izdoshlik masalalariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavriat talabalari hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.



**THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE, AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**ALISHER NAVOI TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK
LANGUAGE AND LITERATURE**

**UZBEKISTAN WRITERS UNION BABUR INTERNATIONAL PUBLIC
FOUNDATION**

The Proceedings of the International Scientific Theoretical Conference

**“THE IMPACT OF ZAHIR AD-DIN
MUHAMMAD BABUR'S LEGACY
ON THE ADVANCEMENT OF
EASTERN STATEHOOD AND
CULTURE”**

Tashkent – 2026



The Proceedings of the International ScientificTheoretical Conference “The Impact Of Zahir Ad-Din Muhammad Babur's Legacy On The Advancement Of Eastern Statehood And Culture”. – Tashkent, 2026.

Editor-in-Chief:

Shukhrat SIROJIDDINOV

Doctor of philological sciences, academician

The Rector of the University of the Uzbek Language and literature named after Alisher Navo'i

Editorial Board:

N.Normurodova – Vice Rector for Research and Innovation
H.Dadaboev– Doctor of philological sciences, professor
Z.Kholmanova – Doctor of philological sciences, professor
B.Abdushukurov – Doctor of philological sciences, professor
M.Khakimova – Doctor of philological sciences, professor
M.Kurbanova– Doctor of philological sciences, professor
M.Umurzakova – Doctor of philological sciences, professor
M.Abjalova – Doctor of philological sciences, professor
S.Bozorova – senior teacher
D.Muhammadiyeva – Candidate of philological, associate professor
M.Shamsiyeva– Candidate of philological, associate professor
I.Urazova – Candidate of philological, associate professor
G.Komilova– Candidate of philological, associate professor
M.Kholmuradova – Candidate of philological, associate professor
M.Tokhtasinova – Candidate of philological, associate professor
D.Mahkamova – senior teacher
Z.Davronova – doctoral student
Z.Urinova – doctoral student
M.Abduazizova – doctoral student

This collection contains the materials of the international scientific-theoretical conference on the topic “The Impact of Zahir Ad-Din Muhammad Bobur’s Literary Legacy on the Advancement of Eastern Statehood and Culture” held on the 543st anniversary of the birth of the great poet and scientist, famous political leader Zahir Ad-Din Muhammad Bobur. In this collection, the life and activities of the king and poet Zahir Ad-Din Muhammad Bobur and the role of his literary and scientific heritage in the development of classical literature: literary-linguistic, historical sociological research, as well as the literary interpretation of Bobur and the Boburids’ in modern literature: literary influence and followers articles devoted to the issues. The book is intended for philological specialists, scientific researchers, graduate and undergraduate students, as well as a wide readership.

The attitude of the authors and the spelling of the titles of the works may differ from the editorial point of view.

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MURAKKAB SO'Z BIRIKMALARI TAHLILI

ANALYSIS OF COMPLEX PHRASES IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Qahharova Sabohat Abdug'afurovna

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti v.b

E-mail: sabohatqahharova922@gmail.com

ORCID: 0009-0006-8908-4010

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./UZKD9915](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./UZKD9915)

Annotatsiya. *Ushbu maqola o'zbek va ingliz tillaridagi murakkab so'z birikmalarining shakllanish qonuniyatlarini qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etishga bag'ishlangan. Maqolaning dolzarbligi turlicha lisoniy qurilishga ega bo'lgan analitik til – ingliz tili va agglyutinatativ til – o'zbek tillarida ko'p komponentli sintaktik birliklarning iyerarxik tuzilishini tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi. Maqolada zanjirsimon birikmalarning struktur-semantik xususiyatlari, ularda tobe va hokim so'z munosabatlarining o'ziga xos namoyon bo'lishi hamda mazkur jarayonda yuzaga keladigan lisoniy transformatsiyalar atroflicha yoritilgan.*

Tadqiqot davomida transformatsion tahlil va qiyosiy metodlardan foydalanilgan holda, ingliz tilidagi murakkab birikmalarni o'zbek tiliga o'girishda ma'no va shakl mutanosibligini saqlash muammolari o'rganildi. Maqolaning ilmiy yangiligi murakkab so'z birikmalarining iyerarxik modellarini yaratish va ularni tarjima jarayonida tabiiy ifodalashning samarali usullarini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalari tarjimashunoslik nazariyasini boyitishga, tarjimonlik yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanmalar yaratishga hamda murakkab sintaktik konstruksiyalarni adekvat tarjima qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *murakkab so'z birikmasi, struktur-semantik tahlil, sintaktik transformatsiya, analitik til, agglyutinatativ til, iyerarxik model, zanjirsimon birikmalar, qiyosiy tilshunoslik, tarjima adekvatligi, lisoniy transformatsiya, kognitiv sintaksis.*

Annotation. *This article is devoted to a comparative-typological study of the formation patterns of complex word combinations in the Uzbek and English languages. The relevance of the research is determined by the necessity of analyzing the hierarchical structure of multi-component syntactic units in languages with different linguistic typologies, specifically analytical (English) and agglutinative (Uzbek). The paper provides a comprehensive overview of the structural-semantic characteristics of chain-like constructions, the specific*

manifestation of head-dependent relationships within them, and the linguistic transformations that occur during this process.

Utilizing transformational analysis and comparative methods, the research examines the challenges of maintaining semantic and formal equivalence when translating multi-component English phrases into Uzbek. The scientific novelty of the article lies in the development of hierarchical models for complex word combinations and the identification of effective methods for their natural expression in the target language. The findings of this study contribute significantly to the enrichment of translation theory and serve as a practical guide for translation students in developing professional skills for analyzing complex syntactic structures and achieving translational adequacy.

Key words: *complex phrase, structural-semantic analysis, syntactic transformation, analytical language, agglutinative language, hierarchical model, chain-like constructions, comparative linguistics, translational adequacy, linguistic transformation, cognitive syntax.*

Zamonaviy tilshunoslikda gapning minimal qurilish materiali hisoblangan soʻz birikmalari, xususan, murakkab soʻz birikmalari (complex phrases) tadqiqi kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishda muhim oʻrin tutadi. Maqolaning maqsadi ingliz va oʻzbek tillarida murakkab birikmalarning sintaktik transformatsiyalari va ularning semantik muvofiqligini aniqlashdir. Chunki tilshunoslikda va tarjima nazariyasida murakkab soʻz birikmalari (complex phrases) tadqiqi eng dolzarb masalalardan biridir. Sodda soʻz birikmalaridan farqli oʻlaroq, murakkab soʻz birikmalari kamida uchta mustaqil soʻzning tobe bogʻlanishidan hosil boʻladi.

Maʼlumki, ingliz tili analitik, oʻzbek tili esa agglutinativ tillar oilasiga mansub. Bu farq nafaqat soʻz shakllarida, balki murakkab sintaktik butunliklarni hosil qilishda ham yaqqol namoyon boʻladi. Murakkab soʻz birikmalar ikki tilda ham axborotni ixchamlashtirish va nutqiy tejamkorlikni taʼminlashga xizmat qiladi.

Sintaksisda ikki yoki undan ortiq mustaqil soʻzning tobe bogʻlanishi sodda soʻz birikmasini hosil qilsa, ularning zanjirsimon bogʻlanishi yoki komponentlardan birining oʻzi birikma boʻlib kelishi murakkab soʻz birikmasini vujudga keltiradi.

Olim Gʻ. Abdurahmonov taʼrifiga koʻra, murakkab birikmalarida “zanjirsimon bogʻlanish” ustuvorlik qiladi [Abdurahmonov, 1975]. Ingliz tili grammatikasini tizimli oʻrganishda esa Randolf Kvirk va Sidni Grinbaum kabi olimlarning xizmatlari beqiyosdir [Quirk, Greenbaum, 1985]. Ularning fundamental tadqiqotlarida murakkab soʻz birikmalari (complex phrases) masalasi alohida oʻrin tutadi:

1. Pre-modifikatsiya va Post-modifikatsiya tushunchalari. Kvirk va Grinbaum murakkab otli birikmalarni (complex noun phrases) tahlil qilar ekan, ularning tarkibini ikki asosiy qismga ajratadi:

a) pre-modifikatsiya (oldingi aniqlovchilar). Ingliz tilida asosiy soʻzdan (head) oldin keluvchi barcha aniqlovchilar koʻpincha sifatlar, otlar va sifatdoshlardan tashkil topadi. Masalan, *A large international project* (yirik xalqaro loyiha).

b) post-modifikatsiya (keyingi aniqlovchilar): Asosiy soʻzdan keyin kelib, uni mazmunan toʻldiruvchi elementlar. Bu qism odatda predlogli birikmalar yoki ergash gaplar orqali ifodalanadi. Masalan, *The project of the century* (asr loyihasi).

2. Sintaktik zichlik (complexity) tamoyili

Olimlarning fikricha, murakkab birikmalar sodda birikmalarning shunchaki yigʻindisi emas. Ular iyerarxik tuzilishga ega boʻlib, axborotni maksimal darajada zichlashtirishga xizmat qiladi. Kvirk taʼkidlaganidek, ingliz tilida birikma tarkibidagi elementlar qanchalik koʻpaysa, ularning mantiqiy bogʻlanishi shunchalik murakkablashadi va bu koʻpincha maʼno noaniqligiga olib kelishi mumkin.

Kvirk va Grinbaum nazariyasini oʻzbek tili sintaksisiga tatbiq etsak, quyidagi farqlar yaqqol namoyon boʻladi:

a) ingliz tilida post-modifikatsiya (orqadan aniqlash) juda keng tarqalgan boʻlsa, oʻzbek tilida bu deyarli uchramaydi. Oʻzbek tili tabiatiga koʻra faqat pre-modifikatsiyaga (oldindan aniqlashga) asoslanadi.

b) ingliz tilidagi “*Head + Post-modifier*” modeli (masalan, *The student with a red book*) oʻzbek tilida doimo “*Pre-modifier + Head*” modeliga (masalan, *Qizil kitobi bor talaba*) aylanadi.

Ingliz tilida murakkab soʻz birikmalari koʻpincha “pre-modification” (oldingi aniqlovchilar) zanjiri orqali shakllanadi. Masalan, *International financial management systems*. Bu yerda *systems* — hokim soʻz, qolgan barcha soʻzlar unga zanjir shaklida bogʻlangan. GʻAbdurahmonov fikricha, murakkab soʻz birikmalari nutqning tejamkorligini taʼminlash bilan birga bir necha sodda birikmalarning maʼno va grammatik butunligi bitta markaziy (hokim) soʻz atrofida birlashtiradi [Abdurahmonov, 1975].

Oʻzbek tilida esa murakkab soʻz birikmalari asosan otli va feʼlli birikmalar shaklida boʻladi. Masalan, *Xalqaro moliyaviy boshqaruv tizimlari*. Ingliz tilidan farqli oʻlaroq oʻzbek tilida hokim soʻz asosan oxirda keladi va unga qoʻshilgan egalik qoʻshimchasi butun birikmaning yaxlitligini taʼminlaydi. L.Barxudarov taʼkidlaganidek, tarjima jarayonida gapning sintaktik tuzilishi koʻpincha tubdan oʻzgaradi, bu oʻzgarishlarning asosiy sababi ikki til tizimidagi birikmalarning turlicha birikuvchanlik (valentlik) qonuniyatlariga ega ekanligidir [Barxudarov, 1975].

Atributiv (aniqlovchili) murakkab soʻz birikmalari

Har qanday murakkab so'z birikmasi ma'lum bir ichki iyerarxiya asosida shakllanadi. Bunda so'zlarning chiziqli ketma-ketligi shunchaki tartibsiz yig'indi emas, balki bir elementning ikkinchisiga bosqichma-bosqich bog'lanishidan iboratdir. Ingliz tilida otlarning (*noun + noun + noun*) ketma-ket kelishi orqali hosil qilingan birikmalarni o'zbek tiliga o'g'irish tarjimondan yuksak mahorat talab qiladi.

Inglizcha model: $N_1 + N_2 + N_3$. Misol: *Oil price fluctuations* (*neftning narxi o'zgarishi*). Bu birikma strukturasida ikkala tilda deyarli bir xil.

Biroq *sifatlovchi + ot strukturasida* (*adjective + noun*) modeli asosida ingliz tilida bir nechta sifat ketma-ket kelsa, ularning qat'iy tartibi bor. O'zbek tilida bu tartib biroz erkinroq, lekin nutqda zanjirsimon birikmalarni sifatdoshlar orqali ifodalash samaraliroq.

Inglizcha: *A beautiful, long-term, sustainable project.*

Kalka: *Go'zal, uzoq muddatli, barqaror loyiha.*

O'zbek tili strukturasiga moslashtirish: *Uzoq muddatga mo'ljallangan, barqaror va samarali loyiha*. Bu yerda *go'zal* (*beautiful*) so'zi loyihaga nisbatan o'zbek tilida *samarali* ma'nosida adaptatsiya qilinishi maqsadga muvofiq.

O'zbek tilida iyerarxik zanjir (Head-Final) Ushbu hodisani *qizg'ish qora ro'molli ayol* va *reddish-black scarved woman* birikmalari misolida ko'rib chiqish o'rinli.

O'zbek tilida murakkab birikmalarning ma'no markazi, yani yadrosi doimo oxirida keladi va barcha aniqlovchilar unga chapdan o'ngga qarab yo'naladi.


Sintaktik tahlil bosqichlari:

1. Yadro (asos): ayol (umumiy tushuncha).
2. I darajali tobelik: *ro'molli ayol*, bunda *ro'molli* so'zi bevosita yadroga bog'lanib, uning belgisini aniqlaydi.
3. II darajali tobelik: *qora ro'molli*, bu yerda *qora* so'zi *ayolga* emas, balki *ro'molli* so'ziga bo'ysunadi.
4. III darajali tobelik: *qizg'ish qora*, bunda *qizg'ish* so'zi rangning tusini (*qora rangni*) aniqlab, iyerarxiyaning eng quyi pog'onasini hosil qiladi.

Ingliz tilidagi *reddish-black scarved woman* birikmasida ham struktura o'xshash bo'lsa-da, lisoniy ifodalanish uslubi (masalan, qo'shma so'zlar yoki defisdan foydalanish) farq qilishi mumkin.

Har ikki tilda ham birikma yadro oxirida kelib, deyarli bir xil modelga ega. Ammo o'zbek tilida bu iyerarxiya sof agglyutinatativ xususiyatga ega bo'lib, har bir so'z o'zidan keyingi so'zni mantiqan “qurollantirib” boradi. Agar ushbu zanjirdagi bitta element (masalan, *qora*) olib tashlansa, butun iyerarxiya buziladi yoki ma'no mutlaqo o'zgarib ketadi.

SINTAKTIK IYERARXIYA MODELI



Uch kundan beri shimoldan esgan mayin shamol birikmasining mantiqiy iyerarxiyasini matnli ko'rinishda tahlil qiladigan bo'lsak, mazkur murakkab birikma quyidagi zanjir asosida qurilgan:

Yadro (asos): shamol

I darajali aniqlovchi: *mayin shamol* (Qanday shamol?)

II darajali aniqlovchi: *shimoldan esgan* (Qaysi tomondan esgan?)

III darajali aniqlovchi: *uch kun* (Necha kun?)

IV darajali aniqlovchi: *shimoldan esgan mayin shamol* (Qanday mayin shamol?)

Yadrodan uzoqlashgan sari aniqlovchilarning qamrovi kengayib boradi.

Bu kabi iyerarxik modellashtirish tarjima jarayonida so'zlarning mantiqiy bog'lanishini to'g'ri aniqlash va aslning saqlab qolish uchun muhim metodik vosita bo'lib xizmat qiladi.

“Of” predlogli birikmalar (*noun + of + noun*)

Ingliz tilidagi $N_2 + of + N_1$ strukturasi o'zbek tilida ko'pincha qaratqichli birikma N_1 ning N_2 si yoki $N_1 N_2$ shakliga o'tadi.

Inglizcha: *The development of the country*.

1-variant: *mamlakatning rivojlanishi* (qaratqichli birikma).

1-variant: *mamlakat taraqqiyoti* (belgisiz shakli).

Murakkabroq misol: *The shadow of the tree on the wall*. -> *Devordagi daraxt soyasi* (ingliz tilida tartib: *soya* -> *daraxt* -> *devor*; o'zbek tilida: *devor* -> *daraxt* -> *soya*). Bu borada zamonaviy tilshunoslik asoschisi N.Xomskiy shunday deydi: “Har qanday murakkab qurilma shunchaki so'zlarning chiziqli zanjiri emas, balki ularning mukammal iyerarxik munosabatlaridan iboratdir” [Chomsky, 2002].

Murakkab fe'lli birikmalar

Fe'lli birikmalarda o'zbek tili ingliz tilidan ancha boy imkoniyatlarga ega, chunki o'zbek tilida tobe qism vazifasida ravishdosh va ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari kelishi kuzatiladi.

Inglizcha: *Decided to start working.* (Infinitiv zanjiri)

O'zbekcha: *Ishlashni boshlashga qaror qildi.* (hn+hn+fe'l)

Do'stlar bilan dam olish uchun sayohatga chiqish fe'lli birikmasi ham o'zbek tilidagi murakkab iyerarxik birikmalarga misol bo'la oladi. Bu yerda asosiy yadro — *chiqish* harakat nomi bo'lib, qolgan barcha bo'laklar iyerarxik qatlamlar hosil qilib, shu yadroga birikadi. Bu birikmada mantiqiy zanjir quyidagicha quriladi:

Yadro (asos): *chiqish*

I darajali birikma: *sayohatga chiqish* (qayerga/nima maqsadida chiqish?)

II darajali birikma: (sabab/maqsad): *dam olish uchun sayohatga chiqish* (nima uchun sayohatga chiqish?)

III darajali birikma: (birgalik): *Do'stlar bilan dam sayohatga chiqish* (Kim bilan sayohatga chiqish?)

Ushbu iyerarxiyada har bir birikma o'zidan keyingi butun bir birikmani aniqlab keladi:

[*Do'stlar bilan*] → [*dam olish uchun*] → [*sayohatga*] → [**CHIQISH]**

Bu modelda strelkalar tobelanuvchi so'zdan hokim (yadro) so'zga qarab yo'naladi. Murakkab iyerarxiyada birikma kengayib borgani sari iyerarxik qatlamlar ortadi.

Xalqaro hamjamiyat tomonidan iqlim o'zgarishiga qarshi keskin choralar ko'rish murakkab fe'lli birikmasining iyerarxik tahlilida barcha bo'laklar *chora ko'rish* yadro fe'li atrofida birlashadi:

Yadro (Head): *choralar ko'rish*

I darajali birikma: *keskin choralar ko'rish*

II darajali birikma: *iqlim o'zgarishi*

III darajali (Qarshilik): *iqlim o'zgarishiga qarshi keskin choralar ko'rish*

IV darajali (Subyekt): *xalqaro hamjamiyat tomonidan iqlim o'zgarishiga qarshi keskin choralar ko'rish*


[*Xalqaro hamjamiyat tomonidan*] → [*iqlim o'zgarishiga qarshi*] → [*keskin*] → [**CHORALAR KO'RISH]**

Murakkab birikmalarni tahlil qilishda tarjimon quyidagi transformatsiyalarni qo'llashi mumkin:

1. Inversiya (o'rin almashish): ingliz tilida markaziy so'z boshda kelgan birikmalarni o'zbek tilida teskari tartibda ifodalash: *the department of International Relations* (*Xalqaro aloqalar bo'limi*) O'zbek va ingliz tillarini qiyoslashning asoschilaridan biri J.Bo'ronov birikmalar haqida shunday deydi: “Ingliz va o'zbek tillaridagi birikmalarni solishtirishda eng asosiy farq aniqlovchi va aniqlanmishning joylashish tartibi hamda ular orasidagi grammatik aloqa vositalaridir” [Bo'ronov: 1973].

2. **Sintetik kengaytirish:** ingliz tilidagi ixcham *adjective* + *noun* birikmasini o'zbek tilida to'liq bir gap yoki sifatdosh qurilma bilan berish: *Water-soluble vitamins* (*suvda eriydigan vitaminlar*).

1-rasm



Sintaktik kondensatsiya (zichlashish) hodisasi

Ingliz tilida axborotni kichik birikmaga siqib joylashtirish (condensation) ko'p kuzatiladi. O'zbek tilida esa bu ko'pincha yoyiq sifatdoshli qurilmalarni talab qiladi.

Inglizcha: *Low-cost labor-intensive production*. (5 ta so'z)

O'zbek tili muqobilida har bir komponent o'zidan keyingi komponentni aniqlab keladi: *arzon ishchi kuchi talab qilinadigan ishlab chiqarish*. (6 ta so'z)

Ingliz tilida umumiy *sifat+ot* bog'lanishi (*adjective+noun*) o'zbek tiliga tarjima qilinganda *sifatdoshli qurilma+ot* shaklini olib, yoyiq aniqlovchi vazifasida kelgan.

Murakkab so'z birikmasi tarjima qilinayotganda “yadro” (nucleus)ni aniqlab olish muhim. Ingliz tilida yadro (asosiy ma'no) odatda birikmaning boshida turadi, keyingilari unga *of*, *in*, *with* orqali ulanadi. O'zbek tilida esa yadro har doim birikmaning oxirida keladi: *The high-level intergovernmental meeting on climate change*. Mazkur birikmada yadro *meeting* (*uchrashuv*). O'zbekcha tarjimasida so'zlar tartibi quyidagicha: *Iqlim o'zgarishi yuzasidan yuqori darajadagi hukumatlararo uchrashuv*.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'zbek va ingliz tillarida murakkab so'z birikmalari tahlili faqatgina lug'aviy tarjima emas, balki sintaktik modellashirish jarayoni hamdir. Tarjimon ingliz tilidagi murakkab zanjirli birikmalarni o'zbek tilining tabiiy agglyutinatativ qonuniyatlariga moslashtirishi shart.